

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 17 - noyabr

409-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri “Go‘ne qala” MFY hududidan  
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi “Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-204-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yong‘in xavfsizligi xizmatining yong‘in o‘chirish depolarini qurish va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 627-sonli qaroriga asos, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining 2023-yil 10-avgustdagi 12/1/13-2288-sonli xatini inobatga olib, “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to‘g‘risida”gi va “Yer to‘g‘risida”gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Nukus shahri “Go‘ne qala” MFY hududidagi Nukus shahri Favqulodda vaziyatlar bo‘limi 2-yong‘in qutqaruv qismining amalda foydalanib kelinayotgan 0,0638 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.
3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A.Davletov)ga davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish so‘ralsin.
4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunbaev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 17-noyabrdagi  
409-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

